

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KURBANOVA MEHRINISO NEMATJANOVNA

**KONCHILIK SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (Navoiy KMK misolida)**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Table of contents of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences**

Kurbanova Mehriniso Nematjanovna

Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish
mexanizmlarini takomillashtirish (Navoiy KMK misolida)3

Курбанова Мехринисо Нематжановна

Совершенствование механизмов развития инновационной
деятельности предприятий горнодобывающей промышленности
(на примере Навоийского ГМК) 29

Kurbanova Mehriniso Nematjanovna

Improvement of mechanisms for the development of innovation activities
of mining industry enterprises (on the example of Navoi MMC)..... 55

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KURBANOVA MEHRINISO NEMATJANOVNA

**KONCHILIK SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (Navoiy KMK misolida)**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt1873 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent davlat transport universiteti Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldasheva Saodat Arislanovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Fayzullayev Javlon Sultonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yusupxodjayeva Gulchexra Baxadixodjayevna
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc15/31.12.2020.I.09.04. raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "_____" _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Odilxujaev ko'chasi, 1 uy. Tel.: (+99871) 299-00-01; faks: (+99871) 299-00-01; e-mail: tstu_rektorat@tstu.ru

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Odilxujaev ko'chasi, 1 uy. Tel.: (+99871) 299-00-01; e-mail: tstu_rektorat@tstu.ru

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_____" _____da tarqatildi.

(2024-yil "_____" _____dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

O.K.Abduraxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

M.I.Akbarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, i.f.n., dotsent

A.A.Gulamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon mamlakatlari orasida iqtisodiy globallashtirish chuqur ildiz otayotgan sharoitda konchilik sanoati korxonalarini tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo'lgan talab jadal tarzda oshib bormoqda. Mamlakatlar iqtisodiy infratuzilmasida konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatining rivojlanishi tarmoq raqobatbardoshligini ta'minlashga salmoqli ta'sir ko'rsatib, doimiy strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi ahamiyati yuqori sanaladi. "Mazkur sohada band bo'lgan ishchilarning soni Osiyo mamlakatlari bo'yicha 520 milliondan ortiq kishini qamrab olib, bu dunyo ko'rsatkichining 1,2%ni tashkil etadi. Innovatsiya bozorida innovatsion ishlanmalarning 8,1% konchilik ishlari faoliyatiga qaratilgan texnologiyalarni tashkil etishi mazkur sohada innovatsiya, inson kapitali, ekologik xavfsizlik singari muhim jihatlarni rivojlanishidagi maqsad va vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlaydi"¹. Shunga ko'ra, jahonda konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini oshirib bormoqda.

Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyat mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslarini kengaytirish, ularning boshqaruv modellarini takomillashtirish, tarmoq innovatsion faoliyatini baholash usullarini tadqiq etish, baholash uslubida yangicha yondashuvlarni qo'llash, korxonaning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga oid loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, jarayonga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, yashil iqtisodiy tizim asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish ssenariysini ishlab chiqish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligini prognozlash masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar asosida taraqqiy ettirish sharoitida konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tarmoqning rivojlanishida inson kapitalining oshishi, aholi turmush tarzining o'sishi, ekologik xavfsizlik hamda atrof-muhit muhofazasining ta'minlanishi, shu bilan bir qatorda ilmiy yaratuvchanlik, innovatsion salohiyatning salmoqli yuqorilashi, muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik hamda moliyaviy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi, iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarning yaxshilanishi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xususan, "Metallurgiya sohasida amalga oshirilayotgan katta dasturlar besh yildan keyin misni – 3 barobar, oltinni esa yiliga 150 tonnagacha oshirish imkonini berishi"² ni maqsad qilib olishida "Navoiy KMK" AJning 4 million tonna oltin rudasini qayta ishlash majmuasining ishga tushishi konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini yanada

¹ <https://www.ngmk.uz/ru/>

² <https://www.ngmk.uz/ru/>

takomillashtirishni taqozo etishini anglatib, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-maydagi PF-5719-son “Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 24 noyabrdagi PF-5583-son “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga” o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 10-dekabrdagi PQ-42-son “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-maydagi PQ-4629-son ““Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tajribasida konchilik sanoati korxonalarini innovatsion faoliyatini rivojlantirish va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar M.N.Vyatkin, S.V.Vyatkin, C.Yi, B.P.Townson, R.D.Plessis, N.Nilsson, S.Daniel, F.Zenyu, S.Houston, M.Burdett singari olimlar tomonidan olib borilgan³.

³ Вяткин М.Н. Разработка основных элементов экономической стратегии устойчивого развития предприятий добывающей промышленности, 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: теория управления экономическими системами; макроэкономика; экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами; управление инновациями; региональная экономика; логистика; экономика труда автореферат 1999 г// Иванов С.В. Управление инжиниринговой деятельностью при создании горно-металлургических комплексов в районах нового освоения. Автореферат 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: теория управления экономическими системами; макроэкономика; экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами; управление инновациями; региональная экономика; логистика; экономика труда, 2013 г, 54 стр// Yi C. Product-Service System Innovation in Urban Mining-A sace studio Wit Volvo SE. Degrae: 2014, , Department of Mechanical Engineering URL: <http://urn.kb.se/resolve?urn=urn:nbn:se:bth-5471> //Thompson, Peter B. Txe emergent imperatives fromand design-ice innovation engagement witxin txe mining industry. Degrae: 2014, Kuensland University of Technology URL: <https://eprints.qut.edu.au/78490> // Plessis R.D. Txe soutx Afrisan mining industries 2055: ssenarios.Degrae: Faculty of Beads and Esonomis Sciences, 2015, Nelson Mandela Metropolitan University URL: <http://hdl.handle.net/10948/4215> // Nelsson N. ow to futureproof and Beads Model : Sapture and sapitalise value in tx field of Urban Mining.Degrae: 2015, , Bleking Institute of Technology URL: <http://urn.kb.se/resolve?urn=urn:nbn:se:bth-1051> //Daniel S. Creative interoperation: A new soncept to guide, understand and evaluate innovation by cross-sister collaboration. Degrae: 2015, Kuensland University of Technology URL: <https://> Senior management Teams San add Value develops innovative and improvised performances for the mining industry.Degrae: 2021, Sranfeld University URL: <http://dspace.lib.cranfield.ac.uk/handle/1826/17902> // Burdett M. Sluster Sonsiosity and Branding is an innovative Sluster for mining. Degrae: 2022, University of Waterloo URL:<http://hdl.handle.net/10012/18727> //

O‘zbekistonda konchilik sanoati korxonalarining iqtisodiy rivojlantirish, moliyaviy sog‘lomlashtirish, investitsion qobiliyatini oshirish masalalarini N.X.Sag‘otov, V.S. Nikitin, S.N.Xashimova, O.O.Qosimov, N.B.Abdusalomova, D.Urmanova, N.M.Yakubov singari olimlar o‘z tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqqanlar⁴.

Yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqot ishlari ilmiy-amaliy, uslubiy-loyihaviy manba bo‘lib xizmat qilsada, ularda mamlakatimizda konchilik sanoatining innovatsion faoliyatini rivojlantirish yuzasidan iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion salohiyatni o‘stirishning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholashning iqtisodiy va moliyaviy masalalari yoritilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Elektr ta‘minoti tizimlarida favqulodda elektr uzilishlarida sanoat iste‘molchilarining ishonchliligini ta‘minlash uchun intellektual boshqaruv tizimi” mavzusidagi №01-01/23 raqamli loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyat mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;

konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantiruvchi mexanizmlarini xorijiy, mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-amaliy g‘oyalari, uslublari, yondoshuv hamda boshqaruv modellarini tadqiq etish va tizimlashtirish;

konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash usullarini tadqiq etish, muallif yondashuvi asosida baholash usulini ishlab chiqish;

korxonaning innovatsion faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va texnologik tahlil qilish, muammolarni aniqlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish;

korxonaning innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni tadqiq etish, ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish, indekatsion baholash, hamda komponentlarga asosan izlanish olib borish;

konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi muammolarni bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqish;

⁴ Сағотов Н.Х. Кончилик саноати техника-экономика кўрсаткичлари ўқув қўлланма, 1981 й, 82 б// Никитин В.С. Прогнозирование развития регионального горно- промышленного комплекса, М. : Наука, 1982 , 143 с// Племяшов А.С. Управление производством на горно-обогатительном комбинате, 1997, 145 с //Хошимова С.Н. Олий таълимнинг Б 341100 – Менеджмент (Кончилик ва геология қидирув ишлари) йўналиши учун «Кончилик саноати иқтисодиёти» фанидан маърузалар тўплами маърузалар тўплами, ТДТУ, 1999 й, 312 б// Қосимов О.О. Бозор иқтисодиёти шароитида Ўзбекистонда олтин ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва уни бошқариш Иқтисод фанлари номзоди дис. ... Автореферати: 08.00.05 – «Менежмент» иқтисослиги, 2004 й. 24 б // Абдусаломова Н.Б. Қора металлургия саноати корхоналарида харажатларни бошқариш ва бухгалтерия ҳисобини ривожлантириш иқтисодиёт фанлари докторлик дис. автореферати: 08.00.08, ТДИУ 2017 й., 52 б//Урманова Д. Кончилик корхоналарининг инновацион ривожланиш даражасини баҳолаш, 2018 й., 299 б // Якубов Н.М. Миллий иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида металлургия соҳаси корхоналарини реструктуризация қилиш механизмларини ишлаб чиқиш Иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори (PhD) ... дис. Автореферати: 08.00.03 – Саноат иқтисодиёти, Тошкент 2020, 28 б.

multifunksional ishlarni amalga oshiradigan ko'p maqsadli tashkiliy tuzilmani elektron dasturlar orqali raqamli tarzda tizimni boshqarish maqsadida loyiha boshqaruv ofisini amaliyotga tadbiq etish uchun blok sxemasini ishlab chiqish;

yashil iqtisodiy tizim asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish ssenariysini ishlab chiqish;

innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligini prognozlash va uni iqtisodiy asoslash.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini amalga oshirish jarayonlarida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida analiz va sintez, modellashtirish, analogiya, deduksiya, umumlashtirish, klassifikatsiya, ilmiy abstraksiya, konkretlashtirish, analogiya, tizimli, omilli, modeli va aksiomatik tahlil qilish, ekspert va dasturiy baholash, statistik taqqoslash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, algoritmlash va bashoratlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "innovatsion loyihalarni baholash usuli" tushunchasining iqtisodiy mazmuni innovatsion yaratuvchanlikni, moliyaviy, iqtisodiy, ekologik ko'rsatkichlarni loyihaviy qiymatini belgilash, innovatsion va iqtisodiy mutanosiblikni kombinatsion ko'rsatkichlarini innovatsion loyihalarni tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo'yicha takomillashtirilgan;

"Navoiy KMK" AJning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning raqamli transformatsion strategiyasi korxonadagi mavjud dastgoh va uskunalarni infratuzilmaviy raqamlashtirish muhitiga transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

"Navoiy KMK" korxonasining innovatsion faoliyati "ABB samarasi" asosida yashil iqtisodiy tizim ssenariysi orqali ilg'or innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishning "call point" mexanizmiga asoslangan loyiha boshqaruv ofisini raqamlashtirishning blok sxemasi asosida takomillashtirilgan;

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ssenariy, blok sxema va strategiyasi asosida 2028 yilga qadar korxonaning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari prognozi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

innovatsion yaratuvchanlikni, moliyaviy, iqtisodiy, ekologik ko'rsatkichlarni loyihaviy qiymatini belgilash, innovatsion va iqtisodiy mutanosiblikni kombinatsion ko'rsatkichlarini innovatsion loyihalarni tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo'yicha muallif yondashuviga ko'ra baholash usuli ishlab chiqilgan;

korxonadagi mavjud dastgoh va uskunalarni infratuzilmaviy raqamlashtirish muhitiga transformatsiyalash maqsadida "Navoiy KMK" AJning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning raqamli transformatsion strategiyasi ishlab chiqilgan;

xorijiy, mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-amaliy g'oyalari, uslublari, yondoshuv hamda boshqaruv modellari asosida konchilik sanoati korxonalarining

innovatsion faoliyatini rivojlantiruvchi mexanizmlarini takomillashtirishga oid takliflar asoslangan;

korxonaning innovatsion faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va texnologik jihatlarni qamrab olgan innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi muammolarni bartaraf etish strategiyasi ishlab chiqilgan;

multifunksional ishlarni amalga oshiradigan ko‘p maqsadli tashkiliy tuzilmani elektron dasturlar orqali raqamli tarzda tizimni boshqarish maqsadida loyiha boshqaruv ofisini amaliyotga tatbiq etishning blok sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati, O‘zbekiston davlat geologiya qo‘mitasi, tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy takliflar, ilmiy asoslangan tavsiya hamda tegishli xulosalar, konchilik sanoati korxonalarida innovatsion rivojlantirish tizimi, ishlab chiqarish faoliyatiga innovatsion va raqamlashtirilgan texnologiyalarni tadbiq etishni texnik-iqtisodiy baholash asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati korxonaning innovatsion faoliyatini yanada taraqqiy ettirish, shuningdek ularning strategik boshqaruvini samarali yo‘lga qo‘yish, yashil iqtisodiy faoliyat asosida ssenariy va shu kabi chuqur ilmiy tadqiqotlardan amaliy foydalanish imkoniyati bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “innovatsion loyihalarni baholash usuli” tushunchasining iqtisodiy mazmunini innovatsion yaratuvchanlikni, moliyaviy, iqtisodiy, ekologik ko‘rsatkichlarni loyihaviy qiymatini belgilash, innovatsion va iqtisodiy mutanosiblikni kombinatsion ko‘rsatkichlarini innovatsion loyihalarni tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo‘yicha takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Innovatsiyalar va investitsiyalar” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat transport universitetining 2023-yil 26-oktyabrdagi 265-U-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda innovatsion yaratuvchanlikni, moliyaviy, iqtisodiy, ekologik ko‘rsatkichlarni loyihaviy qiymatini belgilash, innovatsion va iqtisodiy mutanosiblikni kombinatsion ko‘rsatkichlarini innovatsion loyihalarni tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo‘yicha takomillashtirilgan innovatsion loyihalarni baholash usulining iqtisodiy mazmuniga oid nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

innovatsion yaratuvchanlikni, moliyaviy, iqtisodiy, ekologik ko‘rsatkichlarni loyihaviy qiymatini belgilash, innovatsion va iqtisodiy mutanosiblikni kombinatsion ko‘rsatkichlarini innovatsion loyihalarni tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo‘yicha muallif yondashuviga ko‘ra baholash “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”

AJning 2023-yil 2-fevral 133/2-pp-son buyrug‘i bilan ishlab chiqarishga joriy qilingan (2024-yil 1-fevraldagi 23/01-01-07/46-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, innovatsion loyihalarni baholash operativligi 14%ga oshib, korxonada 2 ta innovatsion loyiha tadbiq etish imkonini bergan;

“Navoiy KMK” AJning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning raqamli transformatsion strategiyasi korxonadagi mavjud dastgoh va uskunalarni infratuzilmaviy raqamlashtirish muhitiga transformatsiyalash asosida takomillashtirish taklifi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning 2023 yil 2 fevral 133/2-pp-son buyrug‘i bilan ishlab chiqarishga joriy qilingan (“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning 2024-yil 1-fevraldagi 23/01-01-07/46-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi korxonada 3,1 mln. so‘m hajmidagi qo‘shimcha qiymatni yaratish imkonini bergan;

“Navoiy KMK” korxonasining innovatsion faoliyati “ABB samarasi” asosida yashil iqtisodiy tizim ssenariysi orqali ilg‘or innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishning “call point” mexanizmiga asoslangan loyiha boshqaruv ofisini raqamlashtirishning blok sxemasi asosida takomillashtirish taklifi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning 2023-yil 2-fevral 133/2-pp-son buyrug‘i bilan ishlab chiqarishga joriy qilingan (“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning 2024-yil 1-fevraldagi 23/01-01-07/46-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonada tijorat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 114,95 mln.so‘mga, tarmoqlararo hamkorlik hajmini 125,66 mln. so‘mga oshirish imkoni yaratilgan;

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ssenariy, blok sxema va strategiyasi asosida 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan korxonaning asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari prognozi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning 2023-yil 2-fevral 133/2-pp-son buyrug‘i bilan ishlab chiqarishga joriy qilingan (“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning 2024-yil 1-fevraldagi 23/01-01-07/46-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonada mahsulot tannarxini pasaytirishdan kutilayotgan daromad 274,33 mlrd. so‘mni tashkil etishi, bu esa foyda hajmining 16802,65 mlrd.so‘mga yetishiga imkon berishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta bo‘lib, shundan 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ishlar e‘lon qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda, shuningdek 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, uning zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekt va predmeti shakllantirilgan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi yoritilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va uning amaliy natijalari keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, tadqiqot ishi doirasida muallif tomonidan nashr etilgan ishlar, shuningdek, Dissertatsiya tuzilishi bo'yicha batafsil ketma-ket ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda konchilik sanoatida innovatsion faoliyat mexanizmlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning innovatsion faoliyat mexanizmlarini shakllantirish hamda ularni faollashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar, yondashuvlar hamda mulohazalar tadqiq etilgan. Shuningdek, konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash usullarini tadqiq etishda konchilik sanoatida innovatsion faoliyat tasnifi, imperativ kategoriyalari izchil o'rganilib, konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar, indeksial hamda nazariy baholash modellari asosida innovatsion faoliyat indikatorlari tizimlashtirildi (1-jadval).


1-jadval

Innovatsion faoliyat indikatorlarini tizimlashtirish⁵

T/r	Innovatsion maqsad	Ikkilamchi ko'rsatkichlar	Uchinchi darajadagi ko'rsatkichlar
1.	Strategik boshqaruv	Strategiyani shakllantirish xususiyati	Ichki va tashqi risklarning imkoniyatlarga ta'siri
		Strategiyani amalga oshirish xususiyati	Korporativ boshqaruvning innovatsion faoliyatni olib borishidagi murakkabliklar
2.	Innovatsion faoliyatni rivojlantirish	Ilm fan yutuqlaridan foydalanishni kengaytirish	Kraudsorsing asosida boshqaruv faoliyatini tadqiq etish
		Innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy mablag'lar	Tashqi aktivlarning ulushi, hamkorlarning ulushi
3.	Innovatsion faoliyatni tijoratlashtirish	Kapital qo'yilmalar	Moliyalashtirish manbalarini takomillashtirish
4.	Innovatsion faoliyat diffuziyasi	Mahsulot sotishdan olinadigan daromad	Mahsulot brendingi


Konchilik sanoatida innovatsion faoliyat avtomatlashtirish orqali rivojlantirilishi korxonalarining yangi iqtisodiy pog'onaga olib chiqishi doimiy muvaffaqiyatni anglatardi. Konchilik sanoatida innovatsion faoliyat mexanizmi innovatsion faoliyat evolyusiyasi bilan bir qatarga o'zgarib, bugungi kunda eng yirik innovatsion faoliyatga ega sohalardan sanaladi (1-rasm).

⁵ Muallif ishlanmasi



1-rasm. Konchilik sanoatida innovatsion faoliyat evolyutsiyasi⁶

Konchilikda ishlab chiqarish faoliyatini mexanizatsiyalashgan dastgohlarga almashtirib borilishi xarajatlarni kamaytirib, daromadni oshirishga hamda ishlab chiqarish siklini oshirishga katta hissa qo'shgan konchilik mahsulotlariga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Natijada, konchilik sanoati korxonalari orasidagi raqobat kurashi korxonalarining texnologik strategiyasini shakllantirishga hamda boshqa korxonalardan ortda qolmaslikka da'vat etdi.



2-rasm. Konchilikda innovatsion faoliyatining takomillashtirilgan tasnifi⁷

Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini baholashda rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarini hamda tasnifini o'rganib chiqish zarurati oshadi. Innovatsion faoliyatni konchilik sanoati korxonalaridagi tasnifi umumiy yoki innovatsion faoliyat tasnifidan farq qiladi. Uning texnologik, tashkiliy, inson va xom

⁶ Блуммарт Т, Брук С., Колтоф Э. Четвертая промышленная революция и бизнес. Как конкурировать и развиваться в эпоху сингулярности. Альпина Паблишер, 2019, 204 стр

⁷ Muallif ishlanmasi

ashyo resurslaridan foydalanish, yashil iqtisodiy tizim asosida faoliyat olib borish jarayonlarining barchasi o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Yuqorida keltirilgan rasmda tasniflashni yirik guruhlariga ajratgan holda innovatsiyalarning funksiyasi, xususiyatlari va qamrab olgan omillari ta'siri natijasida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Mamlakatni raqamli texnologiyalar asosida taraqqiy ettirish sharoitida konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyati holati va uni rivojlantirish mexanizmlarini baholash”** deb nomlanib, unda mamlakatda konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyati izchil tadqiq etilgan.

“Navoiy KMK” va “Olmaliq KMK” AJlarning ishlab chiqarish hajmi yil sayin oshib bormoqda, birgina “Olmaliq KMK” AJning 2018-yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 9,3 trln.so'mga baholangan bo'lsa, 2022-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 3 barobarga o'sgan. “Navoiy KMK” AJ da mazkur natijaviylik 2018-yilda 19,4 trln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda u 2 barobar ko'proq mablag'ga baholangan. “Olmaliq KMK” AJ hamda “Navoiy KMK” AJda buning asosiy sababi korxonalarni modernizatsiyalash, ularni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar qilingan bo'lib, texnologik investitsiyalar innovatsion faoliyatni rivojlantirish turtki bo'lgan.


2-jadval

Mamlakatdagi konchilik sanoati korxonalarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2017-2022-yy)⁸

Yillar	Korxonona	Ishlab chiqarish hajmi (trl.so'm)	Budjetga tushum miqdori (trl.so'm)	Mehnat unumdorligi (mln.so'm)	Mahalliyashtirish (mlrd.so'm)	Eksport (mln. AQSh dollar)
2017 y.	NKMK	18,6	2,4	182	224	164
	OKMK	5,4	1,9	177	34	634
2018 y.	NKMK	19,4	3,0	367	299,2	173
	OKMK	9,3	3,7	371	75	701
2019 y.	NKMK	20,5	4,5	480	337,7	188
	OKMK	23,6	7,1	440	129	775
2020 y.	NKMK	21,6	8,9	693	400,4	195,8
	OKMK	17,9	10,6	689	156	841
2021 y.	NKMK	35,8	12,7	724	469,3	220,4
	OKMK	23,6	15,8	752	214	890
2022 y.	NKMK	39,4	17,1	881	537,6	267,8
	OKMK	30,7	18,4	873	334	936

2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Butunjahon intellektual mulk” agentligi tomonidan Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 12 nafar ixtirochi va olimlar murakkab oltin rudalardan oltinni ajratib olishga qaratilgan texnologiyani ixtiro etishdagi ishtiroki tufayli “Eng yaxshi ixtirochi” oltin medali bilan taqdirlangan. Bunda 2011-yildan izchil olib borilgan chora-tadbirlar pirovardida amalga oshirilganligini e'tirof etish mumkin.

⁸ Navoiy va Olmaliq kon metallurgiya kombinati aksionerlik jamiyatlari ma'lumotlari



3-rasm. “Navoiy KMK” AJning ixtirolarni tadbiq etishning iqtisodiy samaradorligi (2011-2022-yy)⁹

2011-yildan 2022-yildga qadar “Navoiy KMK” AJning ixtirolarni tadbiq etishning iqtisodiy samaradorligi 32 barobarga o‘shib, 16,1 % ni tashkil etgan. O‘rtacha 10 yil davomida o‘shish 9,1 % ko‘rsatgichdan iborat bo‘lib, bu yirik korxonaga uchun yuksak natijaviylikdir.

Tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar mazkur baholash qismida aks ettirilmaganligining boisi uning me‘yorini ishlab chiqish talab etiladi (4-rasm).



4-rasm. Innovatsion tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar sxemasi¹⁰

Tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni aniqlash uchun uning komponentlarini tizimlashtirish hamda ularni “Navoiy KMK” AJning innovatsion faoliyatini tadbiq etishga tayyorlashda muqobil tanlovlarni hisoblashni taqdim eta olishini ta‘minlash talab etiladi. Shunga ko‘ra, tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni tizimlashtirish komponentlarni baholash sxemasini tuzish maqsadga muvofiqdir (3-jadval).

⁹ «Navoiy KMK» AJ ma‘lumotlari va yillik hisobotlari

¹⁰ Muallif ishlanmasi

Innovatsion loyihalarni tahlil qilinadigan indikatsion shartlari bo'yicha ko'rsatkichlarni aniqlash¹¹

№	Komponentlar	Baholash usuli	Izoh
Sifat ko'rsatkichlari			
1.	Texnologik ta'minlanganlik	$I_{ts} = \frac{Q_{ts} + Q_{os}}{Q_g}$	Its-texnologik ta'minlanganlik; Qts- tadbiq etilgan texnologik innovatsiyalar soni; Qos-tadbiq etilgan tashkiliy innovatsiyalar soni; Qg-umumiy tadbiq etilgan innovatsiyalar soni
2.	Malaka darajasi	$H_q = \frac{I_{ts}}{I_s}$	Hq-malaka darajasi; Its-malaka oshirish natijasida tadbiq etilgan texnologik innovatsiyalar soni; Is-innovatsion faoliyatni olib borishda malaka bo'lishish
3.	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	$D_n = \frac{T_i + T_u}{I_{sf}}$	Dn-innovatsion faoliyati asosida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash; Ti-korxonada xodimlarini qo'llash; Tu-aholini qo'llash; Ief-innovatsion faoliyat doirasida nazarda tutilgan ijtimoiy loyihalar
4.	Innovatsion yaratuvchanlik darajasi	$I_{cr} = \frac{I_p + I_{inv}}{I_n}$	Icr-innovatsion yaratuvchanlik; Icp-mintaqada innovatsion loyihalarning amalga oshirishdagi ishtirok soni; Inv-innovatsion loyihalardagi investitsiyalardagi ishtiroki soni; In-innovatsion ishlanmani tadbiq etish vaqti
Hajm ko'rsatkichlari			
5.	Moliyaviy ko'rsatkichlar	$F_c = \frac{B_a + B_p + P_i}{I_a + F_c}$	Ba-davlat budjetidagi ulushi; Bp-aholi daromadidagi ulushi; Pi-loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtirok soni; Ia-innovatsiyalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki; Fc-maqсадli kreditlarning soni
6.	Iqtisodiy ko'rsatkichlar	$E_s = \frac{I_{pr}}{I_s}$	Eb-innovatsion ishlanmalarni tadbiq qilishning iqtisodiy samaradorligi; Ipr-tadbiq etilgan innovatsiyalarga qilingan xarajat; Ib-korxonada faoliyatigi innovatsiyalarni tadbiq etishdan olingan daromad
		$E_{sp} = \frac{(Q_i - Q_t) * (S_i - S_t)}{P_i - P_t}$	Esp-innovatsion ishlanmalarning tannarxning pasayishidagi samaradorligi; Qi-innovatsion mahsulot ishlab chiqarish hajmi; Qt-doimiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi; Si-innovatsion mahsulot ishlab chiqarish xarajati; St-doimiy mahsulot ishlab chiqarish xarajati, Pi-innovatsion mahsulot ishlab chiqarishning narxi; Pt-doimiy mahsulot ishlab chiqarish narxi
7.	Ijtimoiy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash	$E_s = \sqrt[3]{P_i * P_u * P_g * P_v}$	Es-innovatsion loyihalarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash darajasi; Pi innovatsion loyihalarda chiqindisiz ishlab chiqarish; pu- innovatsion loyihalarda aholini toza havo bilan ta'minlash; Pg- innovatsion loyihalarda xodimlarning ishlab chiqarishda sanoat xavfsizligi; Pw-aholini toza suv bilan ta'minlash; n-loyihalar soni
Kombinatsion ko'rsatkichlar			
8.	Innovatsion-investitsion mutanosiblik	$I_m = \frac{\Delta y}{\Delta x}$	Im-innovatsion va investitsion loyihalar mutanosibligi; y-innovatsion loyihalarga investitsiya qilingan mablag'; x-investitsion loyihalarda innovatsion ishlanma uchun qaratilgan sarmoya
9.	Risk	Shkala 0-5 ballga	0-innovatsion loyihaning faqatgina ajralmas riski bor; 1-innovatsion loyihaning ajralmal va qoldiq riski bor; 2-innovatsion loyihaning risk darajasi salbiy ta'sirga og'adi; 3-innovatsion loyihaning risk darajasi salbiy ta'sirga ega; 4-innovatsion loyihaning risk darajasi yuqori; 5-innovatsion loyihaning risk darajasi o'ta yuqori
10.	Barqarorlik va iqtisodiy o'sish	$E_{im} = \frac{Te}{il + fl}$	Te-texnik iqtisodiy samaradorlik; Il-iqtisodiy yo'qotishlar; Fl-moliyaviy yo'qotishlar

¹¹ Muallif ishlanmasi

Yuqorida keltirigan ko‘rsatkichlarni standartlashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan baholash tizimi “Navoiy KMK” AJning yangi texnologiyalarni tadbiq etishning innovatsion markazining huquqiy asoslariga tayangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, unda inson kapitali, korxonaning ishlab chiqarish samardorligi, aholi va ekologik faoliyatda innovatsion faoliyatning ishtirokini aniqlash imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval

“Navoiy KMK” AJning innovatsion loyihalarni tahlil qilinadigan indikatsion shartlari ko‘rsatkichlari (2018-2022-yy)¹²

Ko‘rsatkichlar	Natijalar %da
Texnologik ta‘minlanganlik	44
Malaka darajasi	58
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	128
Innovatsion yaratuvchanlik darajasi	21
Moliyaviy ko‘rsatkichlar	134
Iqtisodiy ko‘rsatkichlar	25,46
Iqtisodiy ko‘rsatkichlar (narx)	14
Ijtimoiy va ekologik xavsizlikni ta‘minlash	25
Innovatsion va investision mutanosiblik	5,15
Risk	9
Barqarorlik va iqtisodiy o‘shish	6,26

“Navoiy KMK” AJning texnologik ta‘minlanganligi 44 % ni tashkil etib, bu natijaning yuqoriligini sababi 2017-yildan korxonada keskin texnologik dastgohlar va uskunalarni xarid qildi. Ularning aksariyat qismi kamida 20 yillik amortizatsion muddatga ega. Malaka darajasi jihatdan tahlil qilganda “Navoiy KMK” AJning ko‘rsatkichlarining yuqoriligi unga malaka oshirish uchun xorijiy mamlakatlardan xodimlar “Navoiy KMK” AJ tomonidan safarbar etadigan malaka oshiruvchi xodimdan ko‘ra ko‘proqligi tufaylidir. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jihatdan “Navoiy KMK” AJning ko‘plab loyihalari va dasturiy tadbirlari mavjud bo‘lib, bunda aholining turmush tarzini o‘zgartirish hamda ularni har tomonlama qo‘llash darajasi 128 % ni tashkil etadi. Innovatsion yaratuvchanlik darajasi 21 % dan iborat bo‘lib, bu 1/5 qismiga to‘g‘ri keladi. Mazkur ko‘rsatkichni aniqlashda 700dan ortiq mintaqada innovatsion loyihalardagi ishtiroki aniqlandi. Mazkur moliyaviy manbalar korxonaning ko‘plab innovatsion rivojlantiruvchi loyihalarini amalga oshirish imkonini beradi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar 25 % samaradorlikni egallab, bunda asosan loyihalarning o‘zaro mutanosibligi tadqiq etilgan. Bu ko‘rsatkich korxonaning ¼ qismiga to‘g‘ri kelib, yil sayin oshib bormoqda.

Ijtimoiy va ekologik xavsizlikni ta‘minlash darasi jihatdan 26,31 % natijasi bilan ko‘plab tashkiliy-iqtisodiy loyihalarning samarali yuritilyotganiga urg‘u beradi. Innovatsion mutanosiblik tadqiq etilganda innovatsion ishlanmalarga qilinadigan innovatsiya miqdorining investitsiya doirasida olib boriladigan ishlarning nisbati innovatsion loyihalar ko‘rsatkichlarining yuqoriligini anglatadi. Barqaror va iqtisodiy o‘shish jihatdan 6,266 % ni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 1,02 % ni tashkil etdi.

¹² Muallif ishlanmasi


Innovatsion faoliyatni samaradorligini baholash me'zoni bo'yicha 60 % dan ortiq bo'lsa natijalar u holda korxonadagi innovatsion faoliyat to'g'ri va samarali olib borayotganini anglatadi. "Navoiy KMK" AJning mazkur holatga nisbatan o'rni ijobiy bo'lib, 60 % dan ko'proq natija erishishida moliyaviy mustaqilligi hamda asosiy e'tiborni innovatsion faoliyatga qaratganligi bilan asoslanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJning innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi va uning istiqbollari**" deb nomlanib, unda Navoiy KMKning innovatsion faoliyatini rivojlantirish muammolarini bartaraf etish strategiyasi, mexanizmi hamda istiqbollari keltirilgan. "Navoiy KMK" AJning innovatsion faoliyatini baholash natijalarini tahlil etganda korxonaning innovatsion faoliyatining takomillashib borayotganligini asoslangan bo'lishiga qaramasdan, ba'zi ko'rsatkichlar yuzasidan innovatsion faoliyat mexanizmini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj aniqlandi. Bu mexanizmi ishlab chiqish, uni faollashtirish uchun strategiya va ssenariy ishlab chiqish tavsiya etiladi (5-rasm).

Ishlab chiqarish jarayonlari innovatsion faoliyatni asosiy qismi sanalib, uning raqamlashtirilishi avtomatlashtirilgan dastgohlarni boshqarish malakasiga ega bo'lish, ishlab chiqarishni muqobil texnologiyalarini zamonavishlashtirish orqali mexanizm zanjirlarini boshqarish daromadning kamida 10 % ga o'sishini hamda texnologik ta'minot zanjiri siklining davomiyligini uzaytiradi. Ishlab chiqarishni innovatsion faoliyat asosida olib borishda xarajatlarni boshqarishning o'zi yetarli sanalmaydi, uning uchun ta'minot faoliyatini ham o'z o'rnida olib borilishi talab etiladi, mablag' bo'lsada, ta'minot bo'lmasa innovatsion faoliyatning mexanizmi noto'g'ri ishlayotgani va nafaol kompetensiyaga ega bo'lganini anglatadi.

Boshqaruv administratsion faoliyatda innovatsion faoliyatning mexanizatsiyalashtirilishi ishlab chiqarish, xarajat va daromad, ta'minot hamda mehnat singari bosh asoslarini yuritishda ahamiyati yuqori bo'lib, konchilik sanoatida asosan 3D avlodli tasvirlar orqali konlarni boshqarish va ularning baholash, shuningdek, muhim qarorlar qabul qilishda tegishli raqamli dasturlardan foydalangan holda olib borishi innovatsion faoliyatning samaradorligini oshiradi. Uning mexanizmda faollashtirilishi aylanma kapitalning 15 % ga qadar kamayishini ta'minlashga, aktivlarning 5 % ga qisqarishiga turtki bo'ladi.

Interfeyslarni raqamlashtirish, g'oyalar generativ guruhini shakllantirish, innovatsion kapitalni rivojlantirish mehnat faoliyatini innovatsion jihatlarini ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish insonlar orqali inson uchun xizmat qilar ekan, inson kapitalining ishtiroki ahamiyati innovatsion faoliyatning yanada taraqqiy etishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. "Navoiy KMK" AJda innovatsion faoliyatni boshqarish ko'plab muvaffaqiyatlarga ega bo'lsada, uning tarkibidagi boshqarmalarning bir-biridan uzoqligi tufayli hujjat almashuv hamda qarorlarning rasmiy xat asosida ijrosini ta'minlashda muammolar borligi tufayli boshqaruv ofisini tezkor tadbir etish zarurati mavjud. Buni aniqlashda rus iqtisodchi olimlari S.V.Ivanov, O.V.Petrova, M.R.Zaporojchenko, D.R.Karipov singarilarning boshqaruv, qaror qabul qilish hamda ijroni operativligini baholash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq:



5-rasm. “Navoiy KMK” AJning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning raqamli transformatsion strategiyasi¹³

¹³ Muallif ishlanmasi

$$H_0: R \Sigma(\alpha) = R \Sigma(\beta) \quad (1.1)^{14}$$

Bu yerda α ning darajasini nolga teng β gipotezasini unga raqib bo'lgan gipotezaga nisbatini ($H_0: R \Sigma(\alpha) \neq R \Sigma(\beta)$ (1.2)) aniqlash orqali boshqaruvning operativligini topish mumkin.

Yuqoridagi gipotezani bo'yicha aniqlashtirishda quyidagi formuladan foydalaniladi: $R_{ca} = R_a + R_c + R_g$; $R_{ca} > 0$ bo'lishi lozim (1.3)

Bu yerda: R_a -ma'lumotlarni tahlil qilish darajasi; R_c -ma'lumotlarni qaror qabul qilishga yo'naltirish darajasi; R_g -ma'lumotlarni umumlashtirish darajasi. Buning natijasida Studentning kriteriyalar jadvaliga asosan $r=(0,01,12)=3,05$ bo'ladi.¹⁵

$$S_d^2 = \frac{D \cdot v}{v-1}; \quad (1.4)$$

$$D = \sqrt{R_a^2 - R_c^2} \quad (1.5)$$

$$S_d = 178,3; S_d^2 = 97,4; 1,44 > 1,32 \text{ ya'ni, } S_d > S_{d2};$$

$$R_{ca} = -1,58; R_a = 22\% R_c = 8\%; R_g = 11\%$$

$$R = \frac{22 + 8 + 11}{3} = 13,6$$

